**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2021 – yilning yanvar – sentabr oylarida Xorazm viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʻlumotlarga koʻra, 2021 – yilning yanvar– sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 14 423,0 mlrd. soʻmni yoki 2020 – yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 14 145,1 mlrd. soʻmni (103,9 %), oʻrmon xoʻjaligida – 94,3 mlrd. soʻmni (102,0 %), baliqchilik xoʻjaligida – 183,6 mlrd. soʻmni (109,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.



**14 423,0** — **Xorazm viloyati boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. soʻm**

01 — **14 145,1** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar**

02 — **94,3** — **Oʻrmon xoʻjaligi**

03 — **183,6** — **Baliqchilik xoʻjaligi**

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)




- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2021– yilning yanvar– sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 98,1 % i– dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 0,7 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2021– yilning yanvar– sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Urganch (1 642,2 mlrd. so‘m) va Xonqa (1 532,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahri (36,9 mlrd. so‘m), Urganch shahri (309,9 mlrd. so‘m) va Tuproqqal’a tumanini (324,5 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (100,4 %) yuqori o‘sish sur’atlari Bog‘ot (106,5 %), Gurlan (105,8%), Xonqa (105,6%) tumanlarida kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar– sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 13 980,2 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 5 723,4 mlrd. so‘mni (107,9 %), chorvachilik mahsulotlari– 8 256,8 mlrd. so‘mni (100,9 %) tashkil qildi.

# Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

40,9 % Dehqonchilik mahsulotlari



59,1% Chorvachilik mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 75,3 % i– dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 22,0 % i– fermer xo‘jaliklariga, 2,7 % i– qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)

2021– yilning yanvar– sentabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Tuproqqal’a tumanida (36,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bog‘ot tumanida (6,3 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Yangiariq tumanida (17,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal’a tumanida (63,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,3 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2021– yilning yanvar – sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5 723,4 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 40,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida sabzavot ishlab chiqarishning eng yuqori hajmi Bog‘ot (55,8 ming t.), Xiva (54,9 ming t.), Xonqa (49,8 ming t.), Urganch (45,1 ming t.), Yangiariq (40,7 ming t.) tumanlarida kuzatildi.

# Don

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan jami 213,4 ming t. don (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 0,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,5 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, t.



# Kartoshka












2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 106,6 ming t. kartoshka (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 5,1 % ga ko‘p) etishtirildi. Kartoshka etishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili kartoshka etishtirish umumiy hajmidan 89,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, t.



# Sabzavot










Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





# Xorazm viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, t.



# Poliz mahsulotlari

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 105,7 ming t. poliz mahsulotlari (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 105,7 %) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidan 53,3 % dehqon shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha poliz mahsulotlari yetishtirish hajmi, t



# Meva

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 126,0 ming t. meva (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 102,6 % ) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 63,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, t



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 34,4 ming t. uzum (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 108,0 % ) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Xorazm viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, t



## Chorvachilik



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 8 256,8 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 59,1 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 126,0 ming t. go‘sht (2020– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 0,9 % ga ko‘p), 890,7 ming tonna sut (0,7 % ga ko‘p), 392,9 mln. dona tuxum (4,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarilgan, 8 398 t. baliq (6,2 % ga ko‘p) ovlangan.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

### Hajmi, ming t.




### O‘sish sur’ati




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





# Xorazm viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, t.



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 890,7 ming t. sut (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 0,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,7% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, t.



# Tuxum

### Hajmi, mln.dona




### O‘sish sur’ati




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 392,9 mln.dona tuxum (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 4,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 69,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Xorazm viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi,tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon(shaxsiy yordamchi)i) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 8 398 tonna (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 6,2 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 64,2 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



# Xorazm viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, t.



## Xorazm viloyatida boqilayotgan chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,9 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,8 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim. Shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 13,4 % fermer xo‘jaliklariga, 85,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,3 % I qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi. Otlar umumiy sonidan 11,4 % fermer xo‘jaliklariga, 88,1% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,5 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 12,4 % fermer xo‘jaliklariga, 64,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 22,9 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

# Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qora mollarning umumiy bosh soni 929,1 mingtaga etdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 32,4 mingtaga (3,6 %) ko‘paydi.

2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Xorazm viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 353,4 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 13,0 mingtaga (3,8 %) ko‘paydi.

2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 92,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, jami qo‘y va echkilarning 85,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5,3 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 277 boshga (5,5 %) ko‘paydi.

2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 88,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



# Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 994,8 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 244,1 mingtaga (4,2%) ko‘paydi.

2021– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 64,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 62-224-64-96
- 71-202-78-89